

**MADANIYATLARARO ALOQALARNI O‘RGANISHDA
LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKKA OID TIL
BIRLIKLARINING TUTGAN O‘RNI**

Nazarov Pulat Djuramurodovich
p.f.n., Tillar kafedrası professori
Samarqand xalqaro texnologiya universiteti
Email: nazarov.pulat@rambler.ru

Annotatsiya: Mazkur maqola nemis va o‘zbek tillarida hayvon nomlari bilan hosil qilingan frazeologik va paremiologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini namoyon etishga bag‘ishlangan. Maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, unda muallif til o‘rgatishga lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazardan yondashishni ustuvor metodika sifatida baholaydi.

Abstract: This article is devoted to revealing the linguocultural features of German and Uzbek phrases associated with names of animals. The practical value of this article is that the author evaluates the linguocultural approach to language teaching as a priority method.

Аннотация: Данная статья посвящена раскрытию лингвокультурных особенностей немецких и узбекских фраз, связанных с именами животных. Практическая ценность данной статьи заключается в том, что автор оценивает лингвокультурологический подход в обучении языка как приоритетный метод.

Kalit so‘zlar: madaniy-ma’rifiy aloqalar, madaniyat, milliy madaniyat, frazeologik va paremiologik birliklar, hayvonot olami, lingvomadaniy xususiyatlar

Keywords: cultural and educational relations, culture, national culture, phraseological and paremiological units, fauna, linguocultural features

Ключевые слова: культурно-просветительные отношения, культура, национальная культура, фразеологические и паремиологические единицы, животный мир, лингвокультурологические особенности

Ma'lumki, Germaniya Federativ Respublikasi muhim xorijiy hamkorlarimizdan hisoblanadi. 1991-yil 31-dekabrda O'zbekiston mustaqilligini tan olgan Germaniya 1992-yil 6-martidan boshlab mamlakatimiz bilan har tomonlama manfaatdor diplomatik munosabatlarni amalga oshirib kelmoqda.

Har ikki davlat prezidentlarining Germaniya va O'zbekistonga qilgan rasmiy tashriflari, shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 17- va 30-avgust hamda 2022-yil 14-mart, 29-avgustda Germaniya prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer, 2021-yil 18-avgustda esa kansler Angela Merkel bilan qo'ng'iroqlashgani natijasi o'laroq ikki mamlakat o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy aloqalar yanada yuqori darajaga ko'tarildi. [2]

Boshqa sohalarda bo'lgani kabi bu mamlakatlar o'rtasida madaniyatlararo aloqalar ham yil sayin oshib bormoqda. Internet portalida e'lon qilingan "Madaniyat, ta'lim, ilm-fan" maqolasida qayd etilishicha, 1993-yilda imzolangan hamda 2002-yilda kuchga kirgan „Germaniya Federativ Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida madaniyat sohasida aloqalar to'g'risida shartnoma“ga muvofiq Germaniyaning madaniyat sohasidagi vositachisi rolini bajaradigan Gyote-instituti, ZfA (Xorijdagi maktablar markaziy boshqarmasi), Fridrix Eber va Konrad Adenauer nomidagi jamg'armalar hamda DVV (Germaniya Xalq universitetlari uyushmasining xalqaro hamkorlik boshqarmasi) tashkilotlari O'zbekistonning madaniy-ma'rifiy travnaqiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda. [3]

Ta'kidlab o'tishimiz joizki, xalqlar o'rtasida madaniyatlararo aloqalarning yanada mustahkamlanishida lingvomadaniyatshunoslikka oid til birliklari, jumladan frazeologik va paremiologik birliklar ham munosib o'rin tutadi. Zero, ular azal-azaldan ma'lum bir xalqqa xos bo'lgan eng zaruriy madaniy-ma'rifiy qadriyatlar sifatida tan olinib kelingan. Shu boisdan biz ham nemis va o'zbek tillaridagi lingvomadaniy xususiyatga ega bo'lgan bunday til birliklarini o'zaro solishtirish orqali nemis va o'zbek xalqlari o'rtasidagi madaniyatlararo aloqalar rivojiga o'z hissamizni qo'shishga harakat qildik.

Bizning bu boradagi tadqiqotlarimiz 2021-2022- o‘quv yilida Samarqand Davlat chet tillar institutida faoliyat olib borgan Germaniyalik PhD doktori Manfred Frühauf bilan hamkorligimiz natijasida yuzaga keldi. Bu nemis mutaxassis bilan birgalikda dastlab nemischa-o‘zbekcha frazeologik lug‘at yaratish loyihasi ustida ish boshladik. Ish jarayonida har ikki millat madaniyatini o‘rganish va bu madaniyatlarni kitobxonlar ongiga singdirish maqsadida mazkur frazeologik va paremiologik birliklarni lingvomadaniyatshunoslikka xos birliklar asosida ilmiy jihatdan talqin etishga kirishdik. 2023-yilda xalqaro hamkorligimiz samarasi o‘laroq “Kulturell und historisch definierte festdtelhende Redensarten (Tiere)” nomli o‘quv qo‘llanmasini chop etishga muvaffaq bo‘ldik.

Mazkur qo‘llanmada biz tayanch so‘zlari o‘ttizta hayvon va qush nomlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan 126 ta nemis tilidagi frazeologik va paremiologik birliklarni o‘zbek tilidagi muqobillari bilan solishtirib, ularni nemis va o‘zbek madaniyatlari bilan qay darajada bog‘liqligini o‘rganib chiqdik. Mavjud ma’lumotlarga tayangan holda, shunga ishonch hosil qildikki, nemis madaniyatida uy hayvonlaridan “it” (16 marta), “mushuk” (12 marta), “chuchqa” (10 marta), “ot” (8 marta), “sigir va ho‘kiz” (6 marta), yovvoyi hayvonlardan esa “maymun” (7 marta), ayiq (4marta) nomlari bilan bevosita bog‘liq ifodalar nisbatan ko‘p ishlatilishini aniqladik. Ushbu birliklarning o‘zbekcha muqobillarini qarab chiqqanimizda 9 o‘rinda “it”, 3 o‘rinda mushuk, 3 o‘rinda “ot” va ikki o‘rinda “ilon” nomlari bilan bog‘liq ibora va maqollar qo‘llanganligining guvohi bo‘ldik.

Demak, bundan xulosa chiqadiki, hayvonlar orasida it birinchi xonakilashtirilgan hayvon sifatida ham nemis, ham o‘zbek xalqi madaniyatida yetakchi o‘rinda turar ekan. Shuningdek, nemis milliy madaniyatining timsoli sifatida “chuchqa” so‘zi bilan bog‘liq ibora va maqollar xalq orasida ko‘p ishlatilsa, o‘zbek milliy madaniyati doirasida esa bunday birliklar tarkibida ko‘proq ilon va tuya kabi cho‘l hayvonlarining nomlari qo‘llanilar ekan.

O‘zbek va nemis tilining frazeologik va paremiologik birliklarini madaniyat nuqtai nazardan talqin etar ekanmiz, bu o‘rinda ham o‘xshashlik, ham farqli

tomonlarini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “chuchqa” atamasi bilan bog‘liq frazeologik va paremiologik birliklar nemis tilida ham ijobiy, ham salbiy ma’noni ifodalaydi, ammo bu so‘z bilan hosil qilingan ibora va maqollar o‘zbek tilida faqat salbiy ma’noda ishlatiladi:

o‘zbek tilida: “chuchqaday bolalamoq”; “o‘zini chuchqadek tutmoq”...

nemis tilida: “Schwein haben” – baxti kulmoq, omadi chopmoq, boyib ketmoq; j-n zur Sau machen – kimnidir yerga urmoq; obro’sini bir pullik qilmoq...

Shuningdek, nemis va o‘zbek milliy madaniyati ta’sirida ayrim birikmalarda tayanch so‘z sifatidagi hayvon nomlari o‘zgarishining ham guvohi bo‘ldik. Misol uchun:

nemis tilida:

o‘zbek tilida:

einen Bärenhunger haben

itdek och bo‘lmoq [1, 9];

sich wie die Kaninchen vermehren

chuchqadek (itdek) bolalamoq [1, 16];

mit j-m Pferde stehelen können

kingadir itdek vafodor bo‘lmoq [1, 28].

O‘ylaymizki, hayvon nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan nemis va o‘zbek tilidagi frazeologik va paremiologik birliklarni lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazardan talqin etishga yo‘naltirilgan bu maqolamiz ma’lum bir millat madaniyatining timsoli vazifasini bajaruvchi milliy liboslar, milliy taomlar, diniy qadriyatlar borasida ham shunday ishlarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pulat Nazarov, Manfred Frühauf. Kulturell und historisch definierte feststehende Redensarten (Tiere). - Samarkand, 2023. - 38 S.
2. <https://kun.uz/news/2023/05/01/xronologiya-ozbekiston-germaniya-munosabatlari-yaqin-tarixda-qay-tarafga-ozgardi?>

3. <https://taschkent.diplo.de/uz-uz/themen/-/1600116>